

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**MAMATKULOV ANVAR BAXTIYAROVICH**

**“MILLIY IQTISODIYOTDA DAVLAT XARIDINI SAMARALI  
TASHKIL ETISH YO‘LLARI”**

5230600 – “Moliya” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**Fakultet dekani**

\_\_\_\_\_ dots. D.R.Rustamov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**“Moliya” kafedrasi mudiri**

\_\_\_\_\_ prof. T.S. Malikov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Bitiruvchi:** 5230600 – “Moliya” ta‘lim  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

A.B.Mamatkulov \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ o‘q.Xidirov N.

**TOSHKENT – 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>1-BOB. DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
1.1.Davlat xaridining iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati .....	7
1.2.Davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	13
<b>1-bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>22</b>
<b>2-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>23</b>
2.1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolardan foydalanish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilish holati tahlili .....	23
2.2. Davlat xaridi tizimining oldingi va yangi holatlari qiyosiy tahlili.....	35
<b>2-bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>42</b>
<b>3-BOB. DAVLAT XARIDI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....</b>	<b>43</b>
3.1. Davlat xaridini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	43
3.2. Davlat xaridini samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlari .....	54
<b>3-bob bo'yicha xulosa.....</b>	<b>59</b>
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>60</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>63</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Ma'lumki, davlat sektorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojidadagi alohida roolidan kelib chiqib, uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Davlat xaridlari esa ayni shu maqsad yo'lida xizmat qiladi. Binobarin, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi ham davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun uning yuqori samaradorligini ta'minlash dolzarb masaladir. Bu masalaning hal qilinishi ko'p jihatdan bugungi kunda davlat xaridlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan davlat xaridi jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu holatning ahamiyati haqida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham fikr bildirib, "Yaqin kelajakda barcha davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini sotish uchun Internet tarmog'ida yagona maydon tashkil etish lozim. Bu byudjet xarajatlarini qisqartirish, davlat mulkini samarali boshqarish va katta moliyaviy mablag'larni iqtisod qilish imkonini beradi"<sup>1</sup> deya ta'kidlagan edilar.

Bundan tashqari, davlat xaridi yordamida kichik biznes va sanoatning innovatsion sohalari taraqqiyotini rag'batlantirish mumkin. Davlat xaridlarining vazifalari shuningdek, raqobat muhitini yaxshilash uchun bu jarayonga ko'proq xo'jalik sub'ektlarini jalb qilish, mahalliy korxonalarni xalqaro andozalarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Mazkur jihatlar bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining obyekt va predmeti.** Tadqiqoti obyektini O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish jarayonlari va asosiy yo'nalishlari tashkil etadi. Ilmiy tadqiqot predmeti sifatida O'zbekiston

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "Xalq so'zi", 23.12.2017.

Respublikasida davlat va korporativ xaridlarni samarali tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar majmui tanlab olingan.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini samarali tashkil etish shart-sharoitlarini, davlat xaridlari samaradorligini oshirishning xorij tajribalarini o'rganish asosida davlat xaridini maqbul darajada tashkil etish orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy masalalardagi takliflar tizimini ishlab chiqish hamda ularni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- davlat xaridini tashkil qilishning nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq qilish;
- davlat xaridini tashkil qilish amaliyotini tahlil qilish;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolardan foydalanish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilish holati tahlil qilish;
- davlat xaridi tizimining oldingi va yangi holatlari qiyosiy tahlilini amalga oshirish;
- davlat xaridlarini samarali tashkil qilishning istiqbollari va ustuvorliklarini o'rganish;
- davlat xaridini tashkil qilishning xorij tajribalarini o'rganish;
- izlanishlar asosida davlat xaridlarini samarali tashkil qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar tizimini ishlab chiqish va ularni ilmiy jihatdan asoslash.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Davlat xaridlarini samarali tashkil etishga qaratilgan tadqiqotimiz ushbu yo'nalishdagi bilimlarning tizimlashtirilganligi, davlat xaridlarini samarali tashkil qilish mexanizmlarining bayon qilinganligi, qator tayanch so'z va iboralarning mazmun-mohiyati tizimlashtirilgan holda yoritilganligi bilan nazariy ahamiyatga egadir. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizda iqtisodiyotda raqobat muhitining qaror topishiga, yangi texnologiyalarga asoslangan savdo jarayonlarining yo'lga qo'yilishi

natijasida xarid jarayonlari samaradorligining oshishiga, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishiga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturlarining muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishi qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining matni 66 sahifadan iborat bo'lib, 17 ta jadval, 10 ta rasm va 53 ta adabiyotni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari, bitiruv-malakaviy ishining predmet va obyekti, bitiruv malakaviy ish mavzusining ma'lumot bazasi va nazariy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida davlat xaridlarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari o'rganildi. O'rganish jarayonida davlat xaridining iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati, davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslari tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida davlat xaridlarini samarali tashkil etishning amaldagi holati tahlil qilindi. Tahlil jarayonida davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolardan foydalanish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilish holati, shuningdek davlat xaridi tizimining oldingi va yangi holatlari qiyosi ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida davlat xaridini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tadqiq etildi va ulardan O'zbekistonda davlat xaridini samarali tashkil etishda foydalanish imkoniyatlari yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida har bir bob bo'yicha shakllangan xulosalar umumlashtirilgan va tadqiqot natijasiga ko'ra shakllangan taklif va tavsiyalar tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

# **1-BOB. DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. Davlat xaridining iqtisodiy mohiyati va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati**

Ma'lumki, davlat sektorining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga ega. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur bo'ladi. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Davlat xaridlari – bu davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarga aytiladi, ya'ni davlat xaridi davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olinishidir. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida “Davlat xaridlari – byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish” deb ta'rif berilgan.

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- tovarlarga – xom-ashyo, materiallar, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatidagi predmetlar, elektr-energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi;

- ishlarga – qurilish, ta'mirlash, bino, inshoot va obyektlarni qurish yoki ta'mirlash bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, gruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, qurilish-montaj ishlari uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya, burg'ulash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali sur'atga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ishlar bahosidan yuqori bo'lmasa)) kiradi;

- xizmatlarga – tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti kiritiladi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik

tarkibiy qismga ajratish mumkin<sup>2</sup>:

- iqtisodiy infratuzilma (transport, aloqa, kommunal xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo‘lgan infratuzilmalar);

- ijtimoiy infratuzilma (maktablar, kasalxonalar, kutubxonalar yoki boshqacha aytganda, jamiyat a’zolarining kundalik hayoti, ijtimoiy ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalar uchun davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va u mavjud qonuniy-me’yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

O‘zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uning iqtisodiy o‘shishga ta’sir etuvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi<sup>3</sup>. Davlat xaridi YaIMning shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shuni inobatga olib, davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta’sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat xaridini iqtisodiyotning ma’lum sohalarida amalga oshirish orqali, o‘sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta’sir etiladi. Jumladan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta’sir etishi mumkin;

- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablariga tenglashtirish orqali milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta’sir etishi mumkin;

- ochiq tenderlarni e’lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta’sir etish mumkin bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan holatlarda faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo‘lgan sharoitda, ya’ni xaridni oqilona rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta’sirini to‘g‘ri baholash orqali

---

<sup>2</sup> Burxonov U. Davlat xaridi. -T.: “InfoCOM.uz”, 2010. 10-bet.

<sup>3</sup> О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. UNDP. - Т.: 2008. 3-стр.

erishish mumkin.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentlaridan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimidagi islohotlar nafaqat o'quv binolari sonining ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000-yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lsalar, hozir ular qurilish-montaj ishlari va loyihalarning turli-tumanligi va sifati bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qila oladilar. Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital qurilish sohasiga davlat buyurtmasi aholi bandligini oshirishda ham muhim o'rin egallaydi. Xuddi shunday misollarni sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha ko'plab keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridining subyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) davlat buyurtmachilari – byudjetdan mablag' oluvchilar va byudjet hamda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini taqsimlovchilar:

- byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar;
- davlat maqsadli jamg'armalarining ijroiya direktsiyalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar hokimliklari va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;
- hukumat kafolati ostida xalqaro grant yoki kredit olgan hamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;

- davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari.

2) tashqi nazorat organlari – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

3) Hukumat – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

4) davlat va xo'jalik boshqaruv organlari – nazoratni tashkil etuvchi organlar:

- Moliya vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;
- Davarxitektqurilish tashkiloti.

5) tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar – tovarlar (xizmatlar, ishlar)



etkazib beruvchi xo‘jalik subyektlari.

6) xaridni amalga oshirish jarayoniga ko‘maklashuvchi tashkilotlar:

- xizmat ko‘rsatuvchi banklar;
- birjalar;
- transport-ekspeditorlik kompaniyalari;
- maslahat, ekspertiza va boshqa tashkilotlar;
- amaldagi qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga

oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Davlat xaridi borasida izlanishlar olib borgan bir qator iqtisodchi olimlarning ishlarini o‘rganish, ilmiy maqola va boshqa ilmiy ishlanmalarini tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, davlat xaridini tashkil etishning jahon amaliyotida bir nechta modellari qo‘llaniladi, ular bir-biridan xaridning qamrovi, unda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlari, savdolari tashkil etishning markazlashish darajasi kabilar bilan farq qiladi

Markazlashgan model - bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiya hukumatning yagona tarkibiy bo‘linmasi - xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bo‘limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori bo‘lsa, barcha turdagi xaridga javobgar bo‘lgan maxsus idora (yoki yirik kompaniyalarda xarid departamenti) shakllantiriladi.

Markazlashmagan (taqsimlangan) model - bunda davlatning buyurtmachisi o‘z ixtisosligi bo‘yicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi. Taqsimlangan modelda kompaniyaning har bir bo‘limi (vazirlik, departament) o‘z ehtiyojlari uchun xaridni mustaqil tarzda amalga oshiradi. Shu maqsadda uning tarkibida xaridni amalga oshiruvchi maxsus tuzilma, bo‘lim tashkil etiladi.

Ikkala modelning ham yutuq va kamchiliklari mavjud: taqsimlangan model ancha egiluvchan, ammo ko‘p xarajat talab etadi. O‘z navbatida, markazlashgan model yirik hajmdagi ulgurji xarid tufayli past baholarni ta‘minlaydi, ammo

egiluvchan emas va har doim ham tovarlar hamda xizmatlarning arizada ko'rsatilgan xususiyatlarini o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Qisman markazlashgan modelda esa, xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Davlat mablag'larini oqilona boshqarish, xarid tizimi modellarini respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Tenderlar orqali xaridni tashkil etishda ochiqlik va erkin raqobatni ta'minlaydigan mexanizmni tashkil etish, narxlar monitoringini takomillashtirish, davlat buyurtmalari uchun shartnoma shartlarining bajarilishi yuzasidan mas'uliyatni yanada oshirish, tenderdan tashqari savdolarning xolisligini ta'minlash kabi qator masalalarni ham ilmiy-uslubiy jihatdan, ham amaliy jihatdan o'rganish davlat xaridi tizimini boshqarishdagi islohotlarning dolzarbligini belgilab beradi.

Davlat xaridini tashkil etishning yangicha tamoyillarga asoslangan tizimi shakllantirilar ekan, tabiiy ravishda, bu sohada o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjudligini ko'rsatish mumkin. Jumladan:

- davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish;
- davlat xaridiga yo'naltirilgan byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish;
- davlat xaridini amalga oshiruvchi va uning nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarni etishtirish masalasi;
- davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- kichik va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridi tizimidagi ishtirokini kengaytirish;
- davlat xaridini amalga oshirishda mamlakatimiz miqyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish va boshqalar.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo'llanilishi, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi borasida qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining malaka darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniylikiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda qatnashuvchi boshqa subyektlar ishtirokida davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bugungi kunda byudjet islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etmoqda. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatining tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes subyektlarining ishtirokini ta'minlash,

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

## **1.2. Davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda davlat xaridi sohasidagi munosabatlar bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun hujjatlarining davlat xaridi sohasini qamrab olish darajasini aniqlashtirish maqsadida ularni ikki guruhga ajratgan holda izohlashni lozim deb topdik:

- davlat xaridiga doir umumiy qonunchilik;
- davlat xaridiga doir maxsus qonunchilik.

Davlat xaridiga oid umumiy qonunchilikka munosabatlarning ancha keng sohasini tartibga solish uchun qabul qilingan, ammo ma'lum bir qismi (bob, modda) yoki tartibga solinayotgan munosabatlarning muayyan tarmog'i davlat xaridiga taalluqli bo'lgan qoidalarni belgilab beruvchi qonun hujjatlari kiradi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi va 2018-yil 9-aprelda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunlari hamda boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar davlat xaridining umumiy qonunchiligini shakllantiradi.

Davlat xaridiga doir maxsus qonun hujjatlariga aynan davlat xaridiga tegishli munosabatlarni umumiy yoki qisman tartibga solish uchun qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar taalluqlidir. Davlat xaridini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik tarkibini quyida batafsil ko'rib o'tamiz. Bundan keyingi o'rinlarda davlat xaridi sohasidagi qonunchilik deyilganda ushbu sohadagi maxsus qonun hujjatlari nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda davlat xaridiga doir qonunchilik tizimini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada

joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3237-sonli Qarori qabul qilunguncha amal qilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar davlat xaridi qonunchiligining birinchi bosqichiga kiradi. Mazkur qaror bilan davlat xaridi qonunchiligining ikkinchi bosqichi boshlandi.

Birinchi bosqichda amal qilgan asosiy hujjatlardan biri davlat xaridi tizimining tender savdolari qismini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrda qabul qilingan "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli Qarori hisoblanadi. Qaror bilan Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom:

- O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar;
- donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grantlar;
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan import qilinadigan va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari o'tkazishni tashkil etish mexanizmini belgilab beradi.<sup>4</sup>

Davlat xaridi qonunchiligining birinchi bosqichidagi keyingi muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-son qarori bo'lib, bu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom kapital

---

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrda qabul qilingan "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli Qaroriga ilova: Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risidagi Nizom.

qurilish bilan bog‘liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish yuzasidan tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.<sup>5</sup>

Birinchi bosqichning keyingi davrlarida davlat xaridini tashkil etishda ustuvor yo‘nalish sifatida xarid jarayoniga elektron savdolarini joriy qilish hamda kichik biznes subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtirokini kuchaytirishga urg‘u berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi 1475-sonli Qarori ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlarga dastlabki tamal toshini qo‘ydi.

Bu qarorda davlat xaridlarini amalga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o‘rnatilishini o‘z ichiga olgan yangi, yanada mukammal, ochiq va oydin mexanizmi kiritilishi belgilab berildi. Bundan tashqari, ro‘yxati davlat xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan (bugungi kunda tugatilgan) belgilanadigan, har bir shartnoma bo‘yicha narxi 300 dan 100 ming AQSh dollari ekvivalentidagi alohida turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha davlat xaridlari Respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolar vositasida amalga oshirilishini nazarda tutuvchi tartib o‘rnatildi.

Davlat xaridi huquqiy asosiga doir yana bir muhim hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi “Davlat va korportiv xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli Qarori bo‘lib, bu qarorning 2-ilovasi bilan O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida elektron xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang‘ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron xaridlarni auksion savdolar shaklida tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.<sup>6</sup>

---

<sup>5</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 302-sonli Qaroriga ilova: O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risidagi Nizom.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi “Davlat va korportiv xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 166-sonli

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portal orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 69-sonli Qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom asosida buyurtmachilar tomonidan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini amalga oshirishni ta’nimlaydigan dasturiy-texnik majmua – elektron katalog joriy qilindi.

Nizomga asosan, elektron katalogda bitta shartnoma bo‘yicha 100 ming AQSh dollaridan ortiq bo‘lmaganga teng bo‘lgan, ularga shoshilinch yoki oldindan ko‘rilmagan zaruriyat yuzaga kelgan tovarlar xarid qilinishi belgilab berildi.<sup>7</sup>

Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat xaridi qonunchiligining ikkinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3237-sonli Qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.

Qarorda davlat xaridining oldingi amal qilgan tizimiga tanqidiy baho berildi. Jumladan, “o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, davlat va korporativ xaridlarning hamda tender savdolarini tashkil etishning amaldagi tartibi zamonaviy talablarga javob bermaydi, turli xil korrupsiya ko‘rinishlari uchun sharoit yaratadigan ko‘plab kelishish jarayonlari, bir-birini takrorlaydigan tartib-taomillar va sansalorlik holatlarining mavjudligi sababli juda murakkab hisoblanadi”.<sup>8</sup>

---

qaroriga 2-ilova: O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida elektron xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portal orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 69-sonli qaroriga 1-ilova: O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3237-sonli Qarori.

Mazkur holatlarni e'tiborga olib, davlat xaridining oldingi tizimidagi tartiblar bekor qilindi. Jumladan,

- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan, bitta kontrakt bo'yicha 5 million AQSh dollaridan yuqori ekvivalentdagi investitsiya loyihalari doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridi yuzasidan tarmoq idoralararo tender komissiyalarini tugatish;

- loyiha tashkilotlari tomonidan tayyorlangan tender va loyihaoldi hujjatlarini taklif etilayotgan texnologiya va asbob-uskunalar bo'yicha texnologiya, asbob-uskunalarini tanlash va narxlarni shakllantirish qismida ekspertizadan o'tkazish funksiyasini bajaradigan ixtisoslashgan tarmoq ekspert kengashlarini tugatish;

- bitta kontrakt bo'yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar orqali amalga oshirishga oid talabni bekor qilish<sup>9</sup>.

Ushbu oraliq bosqichda noaniqlarni bartaraf etish va suiste'molchilik holatlarining oldini olish maqsadida xaridlarni amalga oshirishning vaqtinchalik tartibi joriy qilindi. Bu tartib 1-rasmda keltirilgan.

Qarorda Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida davlat va korporativ xaridlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha vakolatli orga sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilandi.

Mazkur agentlikka O'zbekiston respublika Tovar-xomashyo birjasi bilan birgalikda resurslar yagona milliy ma'lumotnomasi va Davlat xaridlari yagona axborot portali yaratilishi hamda 2018 yil 1 yanvardan ishga tushirilishini ta'minlash topshirildi. Shuningdek bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3237-sonli Qarori.




“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini kiritish yuklatildi:

- davlat (korporativ) xaridlarini raqobat asosida amalga oshirishning shaffof va ochiq mexanizmini, ushbu sohada korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni;

- davlat (korporativ) xaridlariga tadbirkorlik sub'ektlari keng jalb qilinishini;

- davlat (korporativ) xaridlari ishtirokchilari uchun shikoyat qilishning mustaqil va samarali tizimi hamda tartib-taomillarini yaratishni;

- elektron xaridlarni yanada rivojlantirish, natijalarni tahlil qilish uchun ma'lumotlar yagona bazasini, xaridlarning zarur parametrlarini tashkil etishni<sup>10</sup>.




### **1-rasm. Davlat xaridlarini amalga oshirishning yangi joriy qilingan tartibi<sup>11</sup>**

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3237-sonli Qarori.

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va

Davlat xaridi tizimining ikkinchi bosqichidagi eng muhim voqea sifatida 2018-yil 9-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishini olish mumkin. Qonun davlat xaridining prinsipal jihatdan yangi tizimi uchun yagona huquqiy asos vazifasini bajaradi.

Ushbu qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat<sup>12</sup>. Unda davlat xaridlarining prinsiplari aniqlashtirildi (2-rasm).



## 2-rasm. Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari<sup>13</sup>

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ deb

---

uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3237-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-sonli Qonuni.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-sonli Qonuni asosida muallif tomonidan tayyorlandi

belgilandi. Agentlik davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiradi. Vakolatli organga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- davlat xaridlari sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
- davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishning samaradorligi va shaffofligini oshirish bo'yicha choralar ko'radi;
- maxsus axborot portalining operatorini va uning davlat xaridlarini tashkil etish hamda o'tkazish borasidagi faoliyati qoidalarini belgilaydi;
- taklifni baholash va taqqoslash usullarini hamda me'zonlarini, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirish usulini tanlash tartibini va ularning tartib-taomilini belgilaydi.<sup>14</sup>

Mazkur qonunda davlat xaridining subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari, xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishdagi vazifalari va o'rni aniq belgilab berilgan. Qonunga ko'ra davlat xaridi subyektlari sifatida: davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, maxsus axborot portali operatori va ekspertlar e'tirof etiladi.

Shuningdek, qonunda davlat xaridlari jarayonining quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi belgilab berilgan<sup>15</sup>:

- davlat xaridlarini rejalashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;
- shartnomani tuzish va bajarish;
- davlat xaridlari monitoringi.

Qonunda davlat xaridlari to'g'risidagi axborot quyidagicha tarkibda aniqlashtirilgan: davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari, davlat xaridlarining, reja-jadvallari, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, hujjatlarning shakllari, xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan namunaviy


---

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-472-son Qonuni,.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-472-son Qonuni.

shartnomalar, davlat xaridlarining yakunlari to'g'risidagi axborot, insofsiz ijrochilarning yagona reestri, Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning qarorlari, davlat xaridlari bo'yicha statistik axborot. Davlat xaridlari to'g'risidagi axborot davlat tilida, shuningdek davlat buyurtmachisining ixtiyoriga ko'ra boshqa tillarda e'lon qilinishi va tarqatilishi belgilangan.

Ushbu Qonunda xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari aniq belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagi rasmda tasvirlangan:



### **3-rasm. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari<sup>16</sup>**

Mazkur Qonun bilan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda davlat buyurtmachisining maxsus axborot portali operatori bilan va maxsus axborot portali operatorining ishtirokchi bilan muzokaralar olib borishi taqiqlangan

#### **1-bob bo'yicha xulosa**

Davlat xaridi davlatning o'z zimmasiga olgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonidagi eng muhim zvenolardan biri bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning moddiylashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni davlat xaridi davlat tomonidan amalga oshirilgan vazifa va funksiyalarining moddiy natijasini ko'rsatuvchi instrument sifatida jamiyat ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bugungi kunda davlat xaridiga nafaqat davlatning ijtimoiy vazifalarini sifatli bajarilishini ta'minlovchi vosita sifatida, balki iqtisodiyotni rivojlantirishga stimuly beruvchi o'ziga xos mexanizm sifatida qaraladi. Chunki iqtisodiy qonunlar asosida samarali tashkil etilgan davlat xaridi tizimi mamlakat tadbirkorlari uchun juda yirik va keng assortimentli talabga ega bo'lgan bozorni vujudga keltiradi. Shuning uchun davlat xaridini davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning, tabir joiz bo'lsa, "bir o'q bilan ikki quyovni ovlash" imkonini beruvchi quroli sifatida e'tirof etish mumkin.

O'zbekistonda ham davlat xaridi tizimini takomillashtirishga hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda ushbu tizimning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlat xaridining mustahkam huquqiy bazasini yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohadagi qonunchilik davr talabidan kelib chiqqan holda davlat xaridi jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy qilish asnosida doimiy ravishda takomillashib bordi. Bugungi kunda ushbu sohada kardinal o'zgarishlar yuzaga keldi. Qabul qilingan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amaldagi ko'pgina tartibotlar bekor qilindi

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni asosida muallif tomonidan tayyorlandi

hamda ushbu tizimni takomillashtirishga qaratilgan muhim qadamlar qo'yildi. Ammo mazmunan davlat xaridi tizimining bugungi holati yangi bosqichga o'tish jarayoni hisoblanadi.

## **2-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron savdolardan foydalanish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilish holati tahlili**

Davlat xaridini tashkil etishning bugungi kundagi usuvor yo'nalishi mazkur jarayonda internet va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda belgilab olingan bir qator muhim vazifalarning sezilarli natijalarini hozirgi vaqtda xarid jarayonlarida elektron savdolardan foydalanishning ahamiyati oshgani ham tasdiqlaydi. Davlat xaridi tizimida elektron savdolarini joriy qilish bir qator afzalliklarga ega bo'lib, bu afzalliklar uni joriy qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarni kompensatsiyalaydi.


“Zamonaviy tarmoq texnologiyalaridan davlat xaridini tashkil etishda foydalanish, xaridni qog'ozli hujjat aylanmasiga asoslangan an'anaviy tarzda tashkil etishga nisbatan bir qancha yutuqlarga ega. Tanlov hujjatlarini “qog'ozli” tashkil etish, tanlov haqida matbuotda e'lon nashr etish, tovar etkazib beruvchilar bilan muloqot, tanlovga ishtirok etish uchun arizalarni to'plash kabi texnologiyalarni ideal tarzda tashkil etilganda ham, ushbu jarayon davlat buyurtmachisidan ancha kuch va vaqt talab etadi. Agar hujjatlarga tuzatish va aniqlik kiritish talab etilsa, unda barcha jarayonlarni deyarli boshdan qayta boshlash kerak bo'ladi. Internet-texnologiyalarni joriy etish, savdoni o'tkazishga tayyorgarlik jarayonlarini va tanlov savdolarini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, tanlovga ishtirok etishni soddalashtirish va uning shaffofligini oshirish hisobiga tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilar sonini ortishiga olib keladi”.<sup>17</sup>

---

<sup>17</sup> Burxanov U., Atamurodov T. Davlat xaridi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 107-b.

Davlat xaridlari jarayoniga elektron savdolarning tatbiq etilish holatini real statistik raqamlar vositasida baholaymiz. Jumladan, 2014-2016-yillarda elektron savdolar shaklida amalga oshirilgan davlat xaridlarining hajmi ko‘payib borgan.

Bunga quyidagi 4-rasmda aks ettirilgan ma’lumotlar orqali ishinch hosil qilish mumkin.



**4-rasm. 2014-2016-yillarda davlat xaridlari bo‘yicha o‘tkazilgan elektron savdolar hajmi dinamikasi (mlrd so‘m)<sup>18</sup>**

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2014-yilda davlat xaridlari bo‘yicha o‘tkazilgan elektron savdolar hajmi 470,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2015-yilda mazkur ko‘rsatkich 497,1 mlrd so‘mdan iborat bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 5,63% ga oshgan. 2016-yilga kelib davlat xaridini amalga oshirishda elektron savdolarning ahamiyati yanada oshdi. Mazkur yilda elektron savdolar hajmi deyarli 20% ga ko‘payib, 596,4 mlrd so‘mni tashkil qildi.

<sup>18</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

Davlat xaridi jarayonida elektron savdolar hajmining dinamikasi mamlakatimizda davlat xaridining elektron tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan bog‘liq. Mazkur islohotlar davlat xaridi jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali uni takomillashtirish va zamonaviylashtirishda poydevor vazifasini o‘tamoqda.

Elektron savdolarini davlat xaridi jarayonida qo‘llash xarid jarayoni bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni keskin qisqartiradi. Mamlakatimizda elektron savdolarining davlat xaridini amalga oshirishda ekspluatatsiya qilinishi natijasida tejalgan mablag‘larning statistikasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan

#### 1-jadval

#### **2014-2016-yillarda o‘tkazilgan elektron savdolar natijasida tejab qolingan byudjet mablag‘lari miqdori hamda ularning savdolar summasiga nisbatan ulushi<sup>19</sup>**

<b>Yillar</b>	<b>2014-yil</b>	<b>2015-yil</b>	<b>2016-yil</b>
O‘tkazilgan elektron savdolar natijasida tejab qolingan byudjet mablag‘lari miqdori, mlrd so‘m	117.4	139.9	133
Savdolar summasiga nisbatan ulushi, %	20	22	18.2


Davlat xaridlari jarayonida elektron savdolarini tatbiq etish natijasida iqtisod qilingan mablag‘lar statistikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur holatda xarid jarayonida an’anaviy usulda amalga oshirilgan xaridlardagi sarf-xarajatlarning o‘rtacha beshdan bir qismicha mablag‘ tejalishiga erishilgan. Jumladan, 2014-yilda o‘tkazilgan elektron savdolar natijasida tejab qolingan byudjet mablag‘lari miqdori 117,4 mlrd.so‘m bo‘lib, bu savdolar summasining 20%ni tashkil etgan. 2015-yilda elektron savdolarining davlat xaridi jarayoniga tatbiqi yanada ko‘proq foyda keltirgan.

<sup>19</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>




Ya'ni ushbu yilda elektron savdolar natijasida tejab qolingan byudjet mablag'lari miqdori jami savdolar hajmining 22%iga teng bo'lgan (139,9 mlrd.so'm). Keyingi yilda esa o'tkazilgan elektron savdolar natijasida 133 mlrd so'm byudjet mablag'lari tejab qolingan bo'lib, ushbu miqdor savdolar summasining 18,2 %ni tashkil qilgan. Ushbu holat davlat xaridi jarayoni elektron savdolaridan foydalanish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga ma'lum ma'noda erishilayotganligidan dalolat beradi.

Elektron xaridlarning davlat xaridlari tashkil etishdagi ahamiyatining oshib borishini O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida davlat xaridi yuzasidan amalga oshirilgan elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar sonining oshib borishidan ham ko'rish mumkin. Bu holat tadbirkorlik subyektlarining byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish jarayonida elektron savdolaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishining oshganini ko'rsatadi. Quyidagi 5-rasmda davlat xaridini amalga oshirishga doir elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar soniga oid raqamlar aks ettirilgan.



## 5-rasm. Elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni (2014-2016-yillar)<sup>20</sup>

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni tez sur'atlar bilan oshib borganligini ko'rsatadi. 2014-yilda tuzilgan bitimlar soni 262293 tani tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 301036 taga yetdi. 2015-yilda elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni yanada keskin tarzda oshdi hamda 412258 tadan iborat bo'ldi.




## 6-rasm. 2015 yilda elektron auksion savdolari natijalari bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)lar tarkibi (foizda)<sup>21</sup>

<sup>20</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

<sup>21</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

6-rasmda elektron auksion savdolari natijalari bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)lar tarkibi tasvirlangan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2015-yil davomida elektron auksion savdolari natijalari bo'yicha budjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning eng katta ulushi ya'ni 33,5 foizi oziq-ovqat mahsulotlari xaridiga, 22,3 foizi boshqa moddiy zahiralarni va xizmatlarni xarid qilishga, 16,4 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar, 13,9 foizi kompyuter va texnika jihozlari, 5,0 foizi transport vositalarini joriy ta'mirlash xaridlariga to'g'ri kelgan.



## **7-rasm. 2014-2015-yillarda davlat xaridlari bo'yicha o'tkazilgan elektron auksion savdolarining vazirliklar va idoralar kesimi bo'yicha tarkibi<sup>22</sup>**

Ushbu 7-rasmda 2014-2015-yillarda davlat xaridlari bo'yicha o'tkazilgan elektron auksion savdolarining vazirliklar va idoralar kesimi bo'yicha tarkibi aks ettirilgan. Unga ko'ra davlat xaridlari bo'yicha o'tkazilgan elektron auksion savdolar hajmi bo'yicha eng katta ulush berilgan ikki yilda Xalq ta'limi vazirligi tashkilotlariga tegishli bo'lgan. Shuningdek Sog'liqni saqlash vazirligi muassasalari ham mazkur savdolarda ahamiyatli darajada ishtirok etganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda davlat xaridi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi davlat xaridi jarayonida kichik biznes subyektlari ishtirokini kuchaytirish hisoblanadi. Davlat xaridlari kichik tadbirkorlik subyektlar faoliyatida juda yirik va keng assortimentli talabga ega bo'lgan yirik bozorni vujudga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi 1475-sonli Qarori ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlarga dastlabki tamal toshini qo'ydi.

Bu qarorda davlat xaridlarini amalga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o'rnatilishini o'z ichiga olgan yangi, yanada mukammal, ochiq va oydin mexanizmi kiritilishi belgilab berildi. Bundan tashqari, ro'yxati Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan (bugungi kunda tugatilgan) belgilanadigan, har bir shartnoma bo'yicha narxi 300 dan 100 ming AQSh dollari ekvivalentidagi alohida turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolar vositasida amalga oshirilishini nazarda tutuvchi tartib o'rnatildi.

Quyidagi jadvalda elektron savdolar bo'yicha jami tuzilgan bitimlar sonida kichik biznes subyektlarining ulushiga oid ma'lumotlar keltirilgan

**2-jadval**


---

<sup>22</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

**2014-2016-yillarda elektron savdolar bo‘yicha tuzilgan bitimlar sonida kichik biznes subyektlarining ulushi<sup>23</sup>**

Yillar	2014-yil	Jamiga nisbatan ulushi,%	2015-yil	Jamiga nisbatan ulushi,%	2016-yil	Jamiga nisbatan ulushi,%
Jami tuzilgan bitimlar soni	262293	100	301036	100	412258	100
Kichik biznes subyektlari tomonidan tuzilgan bitimlar soni	260848	99.4	299466	99.5	409863	99.4

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2014-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan 260848 ta bitimlar tuzilgan bo‘lib, u jami bitimlarning 99.4%ini tashkil etgan. 2015-yilda esa kichik biznes subyektlari tomonidan tuzilgan bitimlar soni 299466 tani yoki jami bitimlarning 99,5%ini hosil qilgan. 2016-yilda ham shunga o‘xshash holat kuzatilgan, ya’ni kichik biznes subyektlari tomonidan jami bitimlarning 99,4%i tuzilgan



**8-rasm. O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida akkreditatsiyadan o‘tgan mahsulot yetkazib beruvchilar soni (2014-2016-yillar)<sup>24</sup>**

<sup>23</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

<sup>24</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

Davlat xaridi jarayonida kichik biznes subyektlarining ishtiroki yildan yilga ko'payib bordi. Bu fikrni yuqoridagi 8-rasmda tasvirlangan O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida akkreditatsiyadan o'tgan mahsulot yetkazib beruvchilar soniga doir ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

2014-yilda O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida akkreditatsiyadan o'tgan mahsulot yetkazib beruvchilar soni 32 181 taga etdi va buning 92,6 foizini, yani 29 786 tasi kichik biznes sub'ektlari vakillari tashkil etdi.

2015-yilda esa davlat xaridlari bo'yicha amalga oshirilgan elektron auksion savdolariga 38 854 ta tovar yetkazib beruvchilar jalb etildi va ularning 37 949 tasi, ya'ni 97,7 foizini kichik biznes sub'ektlari tashkil etdi.

2016-yilga kelib O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida 42648 ta kichik biznes sub'ektlari akkreditatsiyadan o'tdi, bu jami mahsulot yetkazib beruvchilar sonining 92,6%ini tashkil etdi.

### 3-jadval

#### Kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar hajmining 2014-2016-yillardagi dinamikasi<sup>25</sup>

Yillar	2014-yil	O'sish sur'ati	2015-yil	O'sish sur'ati	2016-yil	O'sish sur'ati
Kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar summasi mlrd so'm	467.5	–	494.5	105.78	591.1	119.53


O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida akkreditatsiyadan o'tgan kichik biznes subyektlari sonining ortishi ular tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar hajmining ham oshishini ta'minladi. Yuqoridagi jadval kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar hajmining dinamikasini ifodalaydi. 2014-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar summasi 467.5 mlrd so'mni tashkil etgan. 2015-yilda

<sup>25</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

kichik biznes subyektlari amalga oshirgan elektron savdolar 494,5 mlrd soʻmdan iborat boʻlib, oldingi yilga nisbatan 5,78%ga koʻpaygan.

2016-yilda Oʻzbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida maxsus axborot portalida amalga oshiriladigan elektron savdolarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki yanada kengaydi, yaʼni ushbu yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan elektron savdolar summasi 591,1 mlrd soʻmga yetdi hamda 2015-yilga nisbatan 19,53%ga oshdi.

Davlat xaridi tizimidagi elektron savdolarida kichik tadbirkorlik sohasining salmogʻi darajasini koʻrsatuvchi yana koʻrsatkich elektron savdolarning umumiy hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi hisoblanadi. Quyidagi grafikda davlat xaridiga doir elektron savdolarida umumiy hajmida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan savdolarning salmogʻini ifodalovchi raqamlar keltirilgan



**9-rasm. 2014-2016-yillarda oʻtkazilgan elektron savdolarning umumiy hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi<sup>26</sup>**

Ushbu 9-rasmda ifodalangan maʼlumotlardan koʻrinadiki, berilgan davrda elektron savdolarning 99%dan ortiq qismi kichik biznes subyektlari tomonida

<sup>26</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

amalgga oshirilgan. Jumladan, 2014-yilda jami o'tkazilgan elektron savdolar umumiy hajmining 99,3% kichik biznes vakillariga tegishli bo'lgan. 2015-yilda bu ko'rsatkich yana oshib, 99,5%ni tashkil etgan. 2016-yilda ham elektron savdolar asosan kichik biznes subyektlari tomonidan amalgga oshirilgan (99,1%).

Yuqoridagi qaror bilan davlat xaridlarini amalgga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o'rnatilishini o'z ichiga olgan yangi mexanizm joriy qilingan edi. Ushbu tartibga asosan davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasiga (bugungi kunda tugatilgan) kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar tarkibini va miqdorini tasdiqlash vazifasi yuklatilgan. Mazkur kvotalar bo'yicha belgilangan rejaning bajarilishi tegishli ma'lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

#### 2014-2016-yillarda Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kichik biznes subyektlari uchun belgilangan kvotalar bo'yicha reja bajarilishi<sup>27</sup>

Yillar	2014-yil	2015-yil	2016-yil
Belgilangan reja, mlrd so'm	420.3	468.5	562.7
Haqiqatda, mlrd so'm	524.5	611.7	728.5
Reja bajarilishi, %	124.8	130.6	129.5

Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan kvota (ulush)lar 2014-yilda rejalashtirilgan 420,3 mlrd. so'm o'rniga 524,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu belgilangan rejaga nisbatan 28,8%ga ko'p demakdir.

2015-yilda esa ushbu kvota 468,5 mlrd.so`mga rejalashtirilgan bo'lib, amalda 611,7 mlrd. so`mga bajarildi. Bu esa rejaga nisbatan 130,6 %ni tashkil etdi.


2016-yilda ham Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan kvota (ulush)larining reja bajarilishida shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin, ya'ni 562,7 mlrd. so`mga rejalashtirilgan

<sup>27</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>



bo'lib, amalda 728,5 mlrd. so'mga bajarildi. Bu esa rejaga nisbatan 129 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi 69-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik sub'ektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi birjaning maxsus axborot portalida tashkil etilgan yangi dasturiy majmua - elektron katalog orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan edi. Elektron katalog bo'yicha tuzilgan bitimlar sonida kichik biznes subyektlarining ulushlari quyidagi diagrammada berilgan.



**10-rasm. 2015-yilning ikkinchi yarmida va 2016-yilda elektron katalog bo'yicha tuzilgan jami bitimlar sonida kichik biznes ulushi<sup>28</sup>**

10-rasm ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, elektron katalogda xaridlarni amalga oshirish borasida kichik biznes sohasi dominant hisoblanadi.

<sup>28</sup> <https://www.mf.uz/uz/deyatelnost/deyatelnost-ii/gosudarstvennye-zakupki.html>

2015-yilning ikkinchi yarmida elektron katalogda tuzilgan bitimlarning 99,9%i kichik biznes subyektlariga tegishli bo‘lgan. 2016-yilda bu raqam 100%ni tashkil etgan.

## **2.2. Davlat xaridi tizimining oldingi va yangi holatlari qiyosiy tahlili**

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat xaridi tizimini rivojlantirishga hamda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida ushbu tizimning barcha imkoniyatlarini ekspluatatsiya qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar davlat xaridining zamonaviy metodlarga asoslangan mutlaqo yangi tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. Bu yangi tizim nafaqat davlat xaridi jarayonida yuzaga keladigan sarf-xarajatlarni qisqartirish orqali byudjet mablag‘larini iqtisod qilishni hamda buyurtmachilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga bo‘lgan ehtiyojini maksimal darajada qondirishni ta‘minlashni, balki xarid jarayoniga kichik biznes subyektlarini kengroq jalb qilish orqali uning iqtisodiyotga stimuly beruvchi mexanizm sifatidagi imkoniyatlarini oshirishni nazarda tutadi.

Davlat xaridining yuqorida ta‘kidlangan yangi tizimi 2018-yil 9-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan boshlandi. Mazkur Qonun davlat xaridi tizimining yagona huquqiy asosi sifatida yangi bosqichning barcha jihatlarini o‘zida aks ettiradi.

### **5-jadval**

#### **Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining “davlat xaridi” termini atamasi bo‘yicha qiyosi<sup>29</sup>**

<b>Davlat xaridining umumiy qonuniy ta‘rifi</b>	
<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>

<sup>29</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

<p>O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida quyidagi ta’rif keltirilgan:  Davlat xaridlari – byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari  Mazkur ta’rif faqat byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat xaridlariga taalluqlidir. Boshqa qonun hujjatlarida davlat xaridi haqida ta’rif berilmagan</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasining yangi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunida keltirilgan ta’rif:  Davlat xaridi – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olish  Ushbu ta’rif davlat xaridlari sohasidagi barcha munosabatlarda umumiy tarzda amal qiladi</p>
---	---

Qiyosiy tahlilimizni davlat xaridining oldingi amal qilgan tizimini “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingandan keyingi davr bilan muqoyasa qilish orqali amalga oshiramiz.

**6-jadval**

**Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining davlat xaridining asosiy prinsiplari bo‘yicha qiyosi<sup>30</sup>**

<b>Davlat xaridining asosiy prinsiplari</b>	
<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

<p>Hech qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatda davlat xaridining prinsiplari aniqlashtirilmagan edi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida davlat xaridining asosiy prinsiplari quyidagicha bayon qilingan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati;</li> <li>- Asoslanganlik;</li> <li>- Moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;</li> <li>- Ochiqlik va shaffoflik;</li> <li>- Tortishuv va xolislik;</li> <li>- Mutanosiblik;</li> <li>- Davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;</li> <li>- Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.</li> </ul>
--	---

– Qonun qabul qilunguncha bo'lgan oraliq bosqichdagi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3237-sonli Qarori bilan o'rnatilgan tartib-taomillar muvaqqat xarakterga ega bo'lganligi uchun ushbu bosqichni tahlil jarayoniga tortmaslikni maqsadga muvofiq deb topdik.

Qonunda davlat buyurtmachisining ikkita yangi toifasi, ya'ni "byudjet" va "korporativ" buyurtmachilar kiritildi.

Byudjet buyurtmachilar:

- davlat organlari;
- byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi
- davlat maqsadli jamg'armalari.
- korporativ buyurtmachilar:
- davlat korxonalari;
- ustav fondida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar.

– Ustav fondining 50%i va undan ortig'i 50% va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar

**7-jadval**

**Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ faoliyati bo'yicha qiyosi<sup>31</sup>**

<b>Davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ</b>	
<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>
<p>Davlat xaridini umumiy muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshirilgan. Uning davlat xaridini muvofiqlashtirish borasidagi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1475-son qarori bilan tashkil etilgan Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi orqali olib borilgan. Lekin aynan davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi</p>	<p>“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruv milliy agentligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ deb belgilandi</p>

Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasida davlat xaridini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari aniq bayon qilingan bo'lib ular quyidagilar:

- davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish;
- rivojlantirish davlat dasturlarini ijro etish;
- davlatning ijtimoiy vazifalarini bajarish;
- davlat xizmatlari ko'rsatish;

Byudjet tashkilotlarining, byudjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash uchun ujdavlat xaridlari

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

subyektlariga qulay muhitni shakllantirishdan, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonun hujjatlarining boshqacha buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

## 8-jadval

### Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining talablarni belgilashda qo'llaniladigan valyuta bo'yicha qiyosi<sup>32</sup>

<b>Davlat xaridini amalga oshirish turlari uchun talablarni belgilashda qo'llaniladigan valyuta</b>	
<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>
Davlat xaridini amalga oshirishning barcha turlari uchun talablar AQSh dollarida belgilangan	“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun bilan davlat xaridining barcha turlari uchun talablar milliy valyutada eng kam oylik ish haqiga nisbatan o'rnatilishi belgilandi.

Davlat xaridlari o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlar, davlat xaridlari yakunlari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflari haqidagi axborotning va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborotning elektron shaklda joylashtirilishini va ko'rilishini, shuningdek elektron davlat xaridlari o'tkazilishini ta'minlovchi vebsayt va maxsus elektron platforma. Davlat xaridlarining barcha turlari uchun xizmat ko'rsatadi.

“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun bilan davlat buyurtmachilari va maxsus axborot portal operatori tomonidan davlat xaridlarini o'tkazish uchun Odob-axloq qoidalari qabul qilinishi belgilab berildi. Unda davlat buyurtmachilari, maxsus axborot portali operatori xodimlarining, xarid komissiyasi a'zolarining kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatda odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarlikka doir yagona talablar belgilanadi.

## 9-jadval

### Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining xarid qilish tartib-taomillari bo'yicha qiyosi<sup>33</sup>

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>
<b>Elektron do‘kon</b>	
Faqat 10 — 13 tovar (ish, xizmatlar) guruhi ro‘yxatiga kiritilgan hamda 100 ming AQSh dollari qiymatigacha bo‘lgan miqdorda, faqat birinchi darajada zarur bo‘lgan tovarlar xarid qilingan	Byudjet buyurtmachilari uchun eng kam ish haqining 25 baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdorida, yiliga esa 2500 baravardan ortiq bo‘lmagan holda, korporativ buyurtmachilar uchun eng kam ish haqining 250 baravaridan ortiq bo‘lmagan barcha turdagi tovar (ish, xizmatlar) uchun tatbiq etiladi
<b>Elektron auksion</b>	
Faqat Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha qiymati 100 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo‘lgan tovar (ish, xizmatlar) xarid qilingan	Faqat tovarlar xarid qilinadi. Byudjet buyurtmachilari uchun eng kam ish haqining 2500 baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdorida, korporativ buyurtmachilar uchun eng kam ish haqining 5000 baravaridan ortiq bo‘lmagan, standart xususiyatlarga ega bo‘lgan tovarlar uchun tatbiq etiladi
<b>Tanlov savdolari</b>	
Faqat kapital qurilish sohasida amal qilgan	O‘rnatilgan mezonlarga javob beradigan tovar (ishlar, xizmatlar)ning barcha turlariga tatbiq etiladi

Qiyosiy tahlilning ilmiy ahamiyatini oshirish, taqqoslanayotgan ikki bosqichlar o‘rtasidagi farqlarni yaqqol ko‘rsatish maqsadida uni ikki ustunli jadvallar shaklida – birinchi ustunda davlat xaridining oldingi tizimi xususiyatlarini, ikkinchi ustunida yangi tizimiga xos xususiyatlarni keltirish orqali amalga oshiramiz.

Mamlakatimizda davlat xaridining elektron tizimini ishlab chiqish bugungi kunda davlat xaridi sohasidagi ustuvor strategik maqsadlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda ham davlat xaridi mexanizmidan foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi 475-sonli qarori dasturilamal vazifasini bajardi.

## 10-jadval

<sup>33</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

## Davlat xaridi oldingi va yangi tizimlarining davlat xaridi ustidan jamoatchilik nazorati bo'yicha qiyosi<sup>34</sup>

<b>Davlat xaridi ustidan jamoatchilik nazorati</b>	
<b>Oldingi tizim</b>	<b>Yangi tizim</b>
Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi normalar mavjud emas	“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunda xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid normalar belgilangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqlidir

Ushbu qarorda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash asnosida muhim natijalarga erishildi. Chunonchi, so'nggi yillarda O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida davlat xaridi yuzasidan amalga oshirilgan elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni ortdi.

Buning natijasida davlat xaridlari bo'yich o'tkazilgan elektron savdolar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ushbu elektron savdolar jarayonida byudjet mablag'larining ma'lum miqdorda iqtisod qilinishiga erishildi. Shuningdek, mazkur elektron savdolar kichik biznes subyektlarining asosiy bozorlaridan biriga aylanib, unda asosiy ulushga ega bo'ldi. Bu borada yuqoridagi qaror bilan belgilab berilgan davlat xaridlarini amalga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o'rnatilishini o'z ichiga olgan yangi mexanizmi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-472-son Qonuni hamda eski normativ-huquqiy hujjatlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.



## **2-bob bo'yicha xulosa**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bilan davlat xaridi tizimining yangi bosqichi boshlandi. Ushbu qonunda davlat xaridining shaffofligini ta'minlashga alohida urg'u berilgan. Xususan, unda xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishda inson omilini yuqori darajada kamaytirish tamoyiliga amal qilingan. Mazkur qonun bilan davlat xaridining huquqiy va tashkiliy qismiga oid bo'lgan yangi tushunchalar kiritildi, xarid qilish tartib-taomillari jarayoniga yangi talablar qo'yildi, davlat xaridi sohasidagi monitoring va nazoratning yangi tartiblari joriy etildi va boshqa bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Qonunning hayotga izchil tatbiq qilinishi sog'lom raqobat muhitini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlari uchun davlat xaridlariga teng erkinlik yaratish, davlat sektorini maqbul muddatlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan samarali va oqilona ta'minlashga xizmat qiladi.

### **3-BOB. DAVLAT XARIDI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Davlat xaridini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi**

O'zbekistonda davlat xaridini samarali tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat xaridi mukammal yo'lga qo'yilgan rivojlangan davlatlarning ushbu sohada bosib o'tgan yo'lini chuqur tahlil qilish, bu yo'lda erishilgan yutuqlarining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga mos jihatlarni o'zlashtirish davlat xaridining takomillashgan, davlat buyurtmachilari ehtiyojlarini o'z vaqtida va yetarli darajada qondirishni ta'minlaydigan hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim richag vazifasini bajaradigan mexanizmini joriy qilish imkoniyatini yaratadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti davlat xaridini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarda o'ziga xos tajriba maktabi rolini o'taydi.

Mazkur tadqiqotimizda davlat xaridi sohasida orttirilgan tajribalari tadqiq etiladigan mamlakatlar sifatida hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lgan hamda xalqaro munosabatlar doirasiga muhim ta'sir ko'rsatayotgan Janubiy Koreya va Xitoy Xalq Respublikalari olindi. O'zbekiston hamda ushbu mamlakatlarning rivojlanish yo'llari, aholisining mentalitetidagi o'xshashliklar, shuningdek, bu davlatlar bilan bugungi kunda yo'lga qo'yilayotgan mustahkam aloqalar tanlovimizda muhim omillar hisoblanadi.

Janubiy Koreya bugungi kunda davlat xaridi sohasida jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan mukammal tizimga ega bo'lgan mamlakat sifatida ajralib turadi. Ushbu tizimning amal qilishi puxta ishlab chiqilgan huquqiy asos bilan bog'liq. Shuning uchun, dastlab, ushbu mamlakatda davlat xaridi sohasining huquqiy asosini yoritamiz.

Janubiy Koreyada davlat xaridi sohasidagi munosabatlar quyidagi qonunlar bilan tartibga solinadi:

Umumiy qonunlar:

- 1) “Davlat shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonun;
- 2) “Mahalliy hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi Qonun.

Maxsus qonunlar:

- 1) “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi Qonun;
- 2) “Qurilish sanoati to‘g‘risida”gi Qonun;
- 3) “Mudofaa sohasida xarid dasturi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa bir qator qonun hujjatlari.

“Davlat shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonun davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalarga taalluqli asosiy qoidalarni belgilab berish orqali shartnoma boshqaruvini sifatli tashkil etish maqsadida qabul qilingan. Qonun quyidagi shartnomalar doirasidagi munosabatlarga tatbiq etiladi:

- davlat ishtirokidagi shartnomalar (shu jumladan, xalqaro tender jarayonlariga taalluqli davlat xaridi shartnomalar);
- davlat hamda fuqarolar o‘rtasida tuziladigan shartnomalar.

“Mahalliy hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi Qonun davlat hokimiyatining mahalliy bo‘g‘inlari boshqaruv organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat xaridi sohasidagi maxsus qonunlar ichida “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi Qonun alohida o‘rin tutadi. Mazkur qonun davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish, yetkazib berish, shuningdek, ro‘yxati Prezident qarori bilan belgilab beriladigan zarur tovarlar va zaxira tovarlar ta‘minotini shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solidi. Qonun shartnomalar tuzishda alohida holatlar, xarid jarayoni, zaxira tovarlarining sotish narxlarini aniqlash, zaxiralarini shakllantirishda davlat-xususiy sherikchiligidan foydalanish, xarid sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

“Qurilish sanoati to‘g‘risida”gi Qonun qurilish ishlari (shu jumladan muhandislik ishlari, qurilish, sanoat korxonalarini asosiy vositalar bilan qurollantirish, landshaftlar yaratish, infratuzilma obyektlarini saqlab turish va ta‘mirlash), mazkur ishlarni bajarish bo‘yicha shartnomalar tuzish, asosiy

podratchilar tomonidan qurilish jarayoniga subpodratchilarni jalb qilish kabi munosabatlarni tartibga solidi. Ushbu qonun qurilish ishlari bo'yicha shartnoma tuzish tamoyillari, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish mezonlari, qurilish ishlarida subshartnomalar tuzishga doir cheklovlar, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ishlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan nizolarni hal etish, qonunchilik buzilish holatlarida ko'riladigan javobgarlik choralari kabi masalalarni qamrab oladi.

Davlatning mudofaa tizimi xarid dasturlarini ijro etish, qurol-yarog'lar va harbiy texnikalar xarid qilish sohasidagi munosabatlar "Mudofaa sohasida xarid dasturi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Yuqorida keltirilgan qonunlar hamda boshqa bir qator qonun hujjatlari Janubiy Koreyada davlat xaridining huquqiy asosini shakllantiradi.

Davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ sifatida Davlat xaridlari xizmati (Public Procurement Service – PPS) faoliyat yuritadi (mudofaa sohasidagi xaridlardan tashqari). Davlat xaridlari xizmati Janubiy Koreyada xarid sohasi bo'yicha markaziy hukumat agentligi bo'lib, hukumat idoralari va jamoat muassasalari tomonidan tovarlar, xizmatlar, qurilish ishlari xaridlari bo'yicha shartnomalar tuzish uchun mas'ul hisoblanadi. Ushbu agentlik dastlab 1949-yilda Xorijiy yordam ta'minoti idorasi nomi bilan tashkil etilgan. Vaqt o'tishi bilan uning faoliyat doirasi kengaydi. Bugungi kunga kelib mazkur idora mudofaa ehtiyojlari uchun xaridlardan tashqari davlat xaridi jarayonining barcha bosqichlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus agentlik maqomini oldi.

PPS quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tovar va xizmatlar xaridini tashkil etadi;
- davlat mablag'lari hisobiga qurilish ishlari xaridini amalga oshiradi hamda ushbu qurilish jarayonlarini boshqaradi;
- xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan xarid jarayonlarini muvofiqlashtiradi;
- elektron xaridlarni amalga oshirishning maxsus raqamli platformasi hisoblangan KONEPS faoliyatini tashkil etadi;

Shundan, xarid jarayoniga xizmat ko'rsatish hajmi 2012-2016-yillarda o'rtacha 35800 mlrd vonni tashkil etgan. Xarid xizmatlarining tarkibi, o'z navbatida, ichki xaridlar, xorijiy xaridlar, qurilish ishlari hamda arxitektura dizayn nazorati xizmatlaridan iborat bo'lib, ular ichida asosiy tranzaksiyalar ichki xaridlar va qurilish ishlari amalga oshirilgan.

**11-jadval**

**PPS tomonidan 2012-2016-yillarda amalga oshirilgan xarid xizmatlari tarkibi,  
(100 mln.von)<sup>35</sup>**

Xizmatlar kategoriyasi		2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
<b>Jami xaridlar</b>		<b>467252</b>	<b>522715</b>	<b>491139</b>	<b>556776</b>	<b>517874</b>
shu jumladan						
<b>Xarid xizmatlari</b>		<b>347346</b>	<b>383733</b>	<b>339479</b>	<b>362453</b>	<b>355220</b>
Shundan						
	Ichki xaridlar	199369	224618	225396	240168	242638
	Xorijiy xaridlar	4631	4790	5087	3963	4457
	Qurilish ishlari	140085	150890	105789	114348	104278
	Arxitektura dizayn nazorati xizmati	3261	3435	3207	3974	3847
<b>Zaxiralarni shakllantirish xizmati</b>	Zaxirani shakllantirish	<b>5628</b>	<b>6354</b>	<b>3160</b>	<b>2656</b>	<b>1312</b>
	Zaxiralarning ishlatilishi	4278	4733	4037	2413	1817
<b>Qurilish ishlarini nazorat qilish</b>		<b>114278</b>	<b>132628</b>	<b>148505</b>	<b>191667</b>	<b>161342</b>

PPS zaxiralar bilan bog'liq faoliyati zaxiralarni shakllantirish hamda zaxiralarning ishlatilishini o'z ichiga oladi. Ushbu ikki ko'rstkichlar berilgan yillarda kamayish tendensiyasini ko'rsatgan. Xususan, zaxiralarni shakllantirish hajmi 2012-yilda 562.8 mlrd.vondan iborat bo'lgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 77%ga pasayib, 131,2 mlrd.vonni tashkil etgan. Qurilish ishlarini nazorat qilish hajmi 2012-yildan (11427.8 mlrd.von), 2015-yilgacha (19166.7 mlrd von) o'sib borgani holda 2016-yilda 16134.2 mlrd vonga pasaygan.

<sup>35</sup> www.pps.com - Janubiy Koreya Daxlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.

PPS Janubiy Koreyada davlat xaridlari jarayonida faol ishtirok etishiga qaramasdan jami davlat xaridlaridagi ulushi u qadar ko'p emas. Bu PPSning ba'zi bir xarid tizimlari bilan (masalan mudofaa ehtiyojlari uchun xaridlar) ma'lumot integratsiyasi mavjud emasligi orqali izohlanadi. Quyidagi jadvalda PPSning jami davlat xaridlaridagi salmog'iga doir ma'lumotlar keltirilgan.

**12-jadval**

**2011-2015-yillarda jami davlat xaridlarida PPS ishtirokidagi xaridlar ulushi<sup>36</sup>**

Xaridlar	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil
Jami davlat xaridlari (100 mln von)	998494	1063598	1130013	1115498	1192070
PPS ishtirokidagi xaridlar (100 mln von)	332937	342715	378943	334392	358490
PPS xaridlarining jami xaridlardagi ulushi, %	33.3	32.2	33.5	30.0	30.1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2011-2015-yillarda PPS Janubiy Koreyada davlat ehtiyoji bilan bog'liq xaridlarning 1/3 qismini qamrab olgan. 2011-yilda PPSning jami davlat xaridlaridagi ulushi 33.3% bo'lgan bo'lsa, 2015-yilda bu ulush biroz pasayib, 30.1%ni tashkil etgan.

PPS ishtirokidagi xaridlarda keyingi yillarda kichik va o'rta biznes ulushi ortib bordi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi 18-jadvalda berilgan.

PPS tomonidan berilgan yillarda amalga oshirilgan jami xaridlarda kichik va o'rta biznes ulushi o'rtacha 70 %ni tashkil etgani holda doimiy ravishda oshib borgan hamda 2016-yilga kelib 75,6 %dan iborat bo'lgan. Kichik va o'rta biznes subyektlari jami xaridlar tarkibida, asosan, tovar va xizmatlar xaridida faol qatnashganliklarini berilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkin. 2012-yilda kichik

<sup>36</sup> [www.pps.go.kr](http://www.pps.go.kr) - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.

va oʻrta biznes subyektlaridan 15201,7 mlrd.vonlik (76,2%) tovar va xizmatlar xarid qilingan boʻlsa, 2016-yilda bu miqdor 19702,8 mlrd.vonga yetdi (81.2%).

### 13-jadval

#### Jami xaridlarda kichik va oʻrta biznes ulushi (2012-2016-yillar)<sup>37</sup>

Xarajatlar (100 mln.von)		2012	2013	2014	2015	2016
Jami xaridlar	Jami	346993	383676	338429	360903	352580
	Kichik va oʻrta biznes	227549	255317	242992	266866	266681
	Jami nisbatan ulushi, %	65.6	66.5	71.8	73.9	75.6
Tovar va xizmatlar	Jami	199369	224618	225396	240168	242638
	Kichik va oʻrta biznes	152017	175376	174355	191837	197028
	Jami nisbatan ulushi, %	76.2	78.1	77.4	79.9	81.2
Qurilish ishlari	Jami	143346	154325	108996	118322	108125
	Kichik va oʻrta biznes	71229	76076	65987	72796	68168
	Jami nisbatan ulushi, %	49.7	49.3	60.5	61.5	63.0
Zaxiralarning sarflanishi	Jami	4278	4733	4037	2413	1817
	Kichik va oʻrta biznes	3703	3865	2650	2233	1485
	Jami nisbatan ulushi, %	86.6	81.7	65.6	92.5	81.7

2002-yilda PPS barcha davlat xaridlari uchun yagona darcha vazifasini bajaruvchi Koreya onlayn elektron xarid tizimi – KONEPSni joriy qildi. KONEPS taʼminotchilarni roʻyxatdan oʻtkazish, tenderlarni tashkil etish, shartnoma tuzish va uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, yetkazib beruvchilar uchun toʻlovlarni oʻtkazib berish jarayoniga xizmat koʻrsatadi. Tender oʻtkazish hamda uning gʻolibi haqidagi barcha eʼlonlar KONEPSda doimiy ravishda chop etiladi. Ushbu platforma 190 dan ziyod tashqi maʼlumotlar tizimi bilan integratsiya qilingan. KONEPS elektron tender jarayonlarini doimiy ravishda monitoring qilib boradi

<sup>37</sup> www.pps.go.kr - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.

hamda malakasiz qatnashchilarning tender jarayonida qatnashishini avtomatik ravishda bloklab qo'yadi.

Hozirgi vaqtda KONEPS tizimi o'z faoliyatida elektron-tender, elektron-shartnoma, elektron-schyot faktura hamda elektron-to'lov vositasida xususiy sektorni ham qamrab olmoqda. Bundan tashqari asosiy pudratchilar va subpudratchilar o'rtasidagi to'lovlar ham mazkur platforma orqali amalga oshirilmoqda. KONEPSdagi muhim yangiliklardan yana biri shundan iboratki, tender haqida e'lonlarni joylashtirish, elektron-tenderlar, shartnoma menejmenti xizmatlaridan foydalanishni smartfonlar orqali amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. Ta'minotchilar telefonda o'rnatilgan "fin-tech" ilovasi yordamida xarid jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

KONEPS faoliyatiga oid statistik raqamlar quyidagi jadavallarda keltirilgan.

#### 14-jadval

#### 2012-2016-yillrda KONEPS orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi (100 mln.von)<sup>38</sup>

Tranzaksiyalar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
Jami tranzaksiyalar	667367	727588	673250	745643	780685
Markazlashtirilgan xaridlar	342733	386184	340519	365158	356499
Avtonom xaridlar	324634	341404	332731	380485	424186

KONEPS orqali xarid jarayonlarida juda katta hajmda tranzaksiyalar amalga oshiriladi. Jumladan, 2012-yilda ushbu tizim orqali 66736,7 mlrd von hajmdagi tarzaksiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2013-yilda bu miqdor 72758,8 mlrd vonga yetdi. 2014-va 2015-yillarda tranzaksiyalar hajmi mos ravishda 67325 mlrd.von hamda 74564,3 mlrd vonni tashkil etgan. 2016-yilga kelib KONEPS orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 78068,5 mlrd vonga yetdi. Mazkur tranzaksiyalar hajmining yarmida ko'pi avtonom xaridlarga to'g'ri keladi.

<sup>38</sup> www.pps.go.kr - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.



Davlat xaridiga doir jami tranzaksiyalarda KONEPS salmoqli ulushga ega. Quyidagi jadvalda KONEPSning jami davlat xaridi tranzaksiyalaridagi ulushlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan

**15-jadval**

**Jami davlat xaridi tranzaksiyalarida KONEPS ulushi (2013-2015-yillar)<sup>39</sup>**

Yillar	Tranzaksiyalar hajmi		KONEPS ulushi, %
	Jami tranzaksiyalar, trln.von	KONEPS orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar, trln.von	
2013	113	72.7	64,34
2014	111,5	67.3	60,36
2015	119,2	74.6	62,58

2013-yilda davlat xaridi bo'yicha jami tranzaksiyalarning 64,34%i KONEPS orqali amalga oshirilgan. Keyingi yilda bu ulush biroz pasayib, 60,36%ni tashkil etgan. 2015-yilda KONEPS tranzaksiyalari jami davlat xaridi tranzaksiyalarida 62.58% salmoqqa ega bo'lgan.

**16-jadval**

**2012-2016-yillarda KONEPSdan foydalanuvchilar soni<sup>40</sup>**

Ishtirokchilar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
Byudjet tashkilotlari	45055	46773	48681	50366	52223
Ta'minotchilar	243621	267963	293418	320983	348069

Keyingi yillarda KONEPS tizimidan foydalanuvchi tashkilotlar soni muntazam oshib bormoqda (21-jadval). Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yilda KONEPSdan foydalanuvchi byudjet tashkilotlari soni 45055 tani tashkil etib, keyingi yillarda bu raqam doimiy ravishda oshib borgab hamda 2016-yilga kelib 52223 ta byudjet tashkilotlari KONEPSdan ro'yxatdan o'tgan. Ta'minotchilar sonida ham shunga o'xshash tendensiyani kuzatish mumkin. Berilgan davr boshida

<sup>39</sup> www.pps.go.kr - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.

<sup>40</sup> www.pps.go.kr - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.

KONEPSdan 243621 ta ta'minotchi korxonalar foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2016-yilda ta'minotchi-foydalanuvchilar soni 348069 taga yetdi.

Xitoy ham o'ziga xos bo'lgan davlat xaridi tizimiga ega. Hozirgi vaqtda Xitoyda davlat xaridi sohasidagi munosabatlar asosan 2 ta qonun bilan tartibga solinadi:

- "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun;
- "Tender to'g'risida"gi qonun.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun 2002-yil 29-iyunda qabul qilingan hamda 2003-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Mazkur qonun markaziy hamda mahalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

"Tender to'g'risida"gi qonun 1999-yil 30-avgustda qabul qilingan bo'lib, 2000-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Ushbu qonunga ko'ra quyidagi loyihalar tender asosida amalga oshiriladi:

- jamiyat manfaatlariga taalluqli bo'lgan infrastruktura obyektlari va kommunal xizmat tarmoqlariga tegishli bo'lgan keng ko'lamli loyihalar;
- davlat korxonalari mablag'lari yoki byudjet mablag'lari hisobidan to'liq yoki xalqaro tashkilotlar yoki xorijiy davlatlardan olinadigan qarz yoki grant mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun, yuqorida takidlanganidek, faqat markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

"Tender to'g'risida"gi qonun esa davlat korxonalari, shuningdek, xususiy sector investitsiyalari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalar doirasidagi munosabatlarni ham tartibga olindi. Bundan tashqari, ushbu ikki qonunning qo'llanilish sohalari o'rtasida bir nechta tafovutlar mavjud bo'lib, ular yuqoridagi jadvalda aks ettirilgan.

Yuqorida keltirilgan qonunlarning ijrosini ta'minlash maqsadida Moliya vazirligi tomonidan bir qator qiodalar ishlab chiqilgan.

**“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun hamda “Tender to‘g‘risida”gi qonunlarning qo‘llanilish sohasidagi tafovutlar<sup>41</sup>**

<b>Farqlanish mezonlari</b>	<b>“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun</b>	<b>“Tender to‘g‘risida”gi qonun</b>
<b>Qamrab olinadigan tipik loyihalar</b>	Davlat organlari binolarini qurish va saqlab turish, temir yo‘l loyihalari, IT texnologiyalari xaridi, idora jihozlari, notijorat tashkilotlari, favqulodda vaziyatlar, geologik va boshqa tadqiqotlar, politsiya, meditsina jihozlari	Asosan davlat korxonalari tomonidan: qayta tiklanuvchi energiya, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish, oqava suvlar tizimi, ichimlik suvi ta‘minoti, jamoat transporti, yirik qurilish loyihalari (Olimpiada o‘yinlari qurilish loyihalari)
<b>Buyurtmachilar</b>	Vazirliklar va hukumat agentliklari hamda ularning hududiy bo‘linmalari, davlatga qarashli maktablar va universitetlar, kasalxonalar, tadqiqot institutlari,	Davlat korxonalar, xususiy korxonalar
<b>Xarid obyektlari</b>	Maxsus katalogda belgilangan yoki qiymati o‘rnatilgan limitdan oshgan tovarlar, ishlar va xizmatlar	Jamiyat manfaatlariga taalluqli ishlar,
<b>Xarid obyektiga nisbatan limit</b>	Tovar va xizmatlar: Markaziy hukumat idoralari uchun: 1.2 mln yuandan oshgan; Boshqa idoralar uchun: 500000 yuandan oshgan. Ishlar: Markaziy hukumat idoralari uchun: 2 mln yuandan oshgan; Boshqa idoralar uchun: 600000 yuandan oshgan.	Ishlar: 2 mln yuandan oshgan Loyihalar: 30 mln yuandan oshgan
<b>Vakolatli organ</b>	Moliya vazirligi	Milliy Tiklanish va Islohotlar Komissiyasi
<b>Ichki xarid tushunchasining ta‘rifi</b>	Berilgan	Berilmagan

<sup>41</sup> www.mof.com - Xitoy Xalq Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

“Tovar va xizmatlarning davlat xaridida tender jarayonlarini boshqarish va qatnashchilarni tenderga taklif etish tartib-qoidalarini” hamda “Davlat xaridining tendersiz metodlariga doir qoidalar” shulardan asosiylari hisoblanadi.

Bundan tashqari, mahalliy darajadagi hokimiyat organlari ham o‘z vakolatlari doirasida davlat xaridini amalga oshirishga doir qoidalarini ishlab chiqishgan. Jumladan, 1998-yilda Shenzen maxsus iqtisodiy zonasi davlat xaridi qoidalarini ishlab chiqdi.

Unga ko‘ra qiymati 100 ming yuandan oshgan tovar va xizmatlarning, 200 ming yuanda oshgan ijara, ta‘mirlash xizmatlarining davlat xaridi tanlov asosida o‘tkaziladi. Beijing munisipal hokimiyati 1999-yil 22-aprelda “Beijing hokimiyati davlat xaridi tartib-qoidalarini”ni qabul qildi va bu hujjat 1999-yil 1-iyundan kuchga kirdi.

Yashil davlat xaridlari (GPP) barqarorlikni ta‘minlashda eng muhim ekologik siyosati vositalaridan biridir. GPP ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan bo‘lsada, uning samaradorligi yaxshilanishi kerak.

Bu ish, xarid jalb mansabdor bilim va GPP Xitoy yetkazib beruvchilar xaridlari natijalarini ta‘sir qilishi mumkin omillar o‘rganish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va mo‘tadil ta‘siri yangi konseptual modelini rivojlantirish istiqbollari qaratilgan.<sup>42</sup>

Xitoyda davlat xaridini amalga oshirishning “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilab berilgan quyidagi usullari mavjud:

- tender;
- taklifnoma jo‘natish;
- muzokaralar olib boorish;
- yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish

Tender davlat xaridini amalga oshirishning eng asosiy usuli hisoblanadi. Qolgan usullarda xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazish qonun hujjatlari bilan

---

<sup>42</sup> Liu J., Shi B., Xue J., Wang Q. Improving the green public procurement performance of Chinese local governments: From the perspective of officials’ knowledge // Journal of Purchasing and Supply Management. Volume 25, 2018.

belgilab berilgan alohida hollarga tatbiq qilinadi. Har bir xarid bo'yicha yozma shaklda shartnoma tuziladi.

### **3.2. Davlat xaridini samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlari**

So'nggi vaqtlarda jamiyatning barcha jabhalarida bo'lgani kabi davlat xaridi sohasida ham yirik o'zgarishlar yuz berdi, ushbu tizimni takomillashtirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar kompleks tusga ega bo'lib, davlat xaridi tizimining bitta bo'limi yoki yo'nalishini rivojlantirishga qaratilmasdan, xaridlarni amalga oshirishning mutlaqo yangi mexanizmini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Davlat xaridining ushbu yangi tizimini joriy qilishda bir tomondan byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag' oluvchilar va boshqa davlat mablag'lari hisobidan xaridlarni amalga oshiruvchi subyektlarning ehtiyojlarini o'z vaqtida, yetarli darajada hamda ortiqcha xarajatlarsiz qondirishni taminlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lsa, boshqa tomondan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida ushbu tizimning o'ziga xos instrument sifatidagi barcha imkoniyatlarini safarbar qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davlat xaridi sohasini takomillashtirish borasidagi islohotlarning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni qabul qilinishi bilan bog'liq. Mazkur Farmonda davlat va jamiyatning barcha jabhalarida tub yangilanishlarni amalga oshirish uchun belgilab berilgan umumiy vazifalar qatorida davlat organlari faoliyati, shu jumladan, davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruv tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5120-sonli Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Loyiha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimini shakllantirish vazifasi belgilab berildi. Unga ko'ra bu tizim:

- har bir resursning (tovarlar, ishlar va xizmatlarning) haqiqiy bozor qiymatini shakllantirish hamda noto'g'ri texnik topshiriq va smetalarni yuritishga yo'l qo'yimaslik imkonini beradigan resurslar yagona milliy ma'lumotnomasini joriy etishni;

- uch o'lchamli loyihalash texnologiyasidan foydalangan holda resurslar hisobini yuritish, loyiha bo'yicha qabul qilingan qaror samaradorligini baholash, resurslar miqdori va turlari to'g'ri belgilanganligini aniqlashni;

- loyiha oldi, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va tegishli jarayonlardan o'tkazish, ijro intizomiga rioya etish, ish yurituvi, hisobotlar tuzish ustidan elektron nazorat o'rnatishni;

- davlat xaridlarining shaffofligini va suiiste'molchiliklarning oldini olishni ta'minlaydigan yagona avtomatlashtirilgan tizim tashkil etishni;

- ishlar bajarilishi va dasturlar ijrosining haqiqiy holatini aks ettiruvchi kalendar-tarmoq rejalashtirishni joriy etishni, shuningdek xabardor qilish tizimiga ega reja va jadvallarni shakllantirishni;

- boshqaruv qarorlari qabul qilishning nazorat-tahliliy ta'minotini nazarda tutadi<sup>43</sup>.

Shuningdek, Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etildi. Quyidagilar Agentlikning vazifalari qilib belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Loyiha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimini yaratish, joriy etish va ekspluatatsiya qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan jalb etiladigan xorijiy kreditlar, zayom va grantlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat va hududiy dasturlar, investitsiya loyihalari ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishining samaradorligi va shaffofligini oshirish;

---

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruv tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5120-sonli Farmoni

- resurslarning haqiqiy bozor qiymatini shakllantirish hamda noto'g'ri texnik topshiriq va smetalarni yuritishga yo'l qo'ymaslik imkonini beradigan resurslar yagona milliy ma'lumotnomasini yuritish;

- davlat xaridlarini amalga oshirish uchun yagona axborot maydonini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan jalb etiladigan xorijiy kreditlar, zayom va grantlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishga ko'maklashishni ta'minlash, norentabelli va samaradorligi past loyihalarni aniqlash;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish konsepsiyalari ishlab chiqilishi va har tomonlama tahlil qilinishini ta'minlash;

- loyihalarni, shu jumladan amalga oshirilayotgan loyihalarni korrupsiya va boshqa suiste'molchiliklar alomatlarini mavjudligi yuzasidan kompleks texnik-iqtisodiy tahlil qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Loyiha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimi ishlashini ta'minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat organlari va boshqa tashkilotlarda joriy etish;

- loyiha boshqaruvi sohasida kadrlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish.<sup>44</sup>

Davlat xaridi sohasini takomillashtirish jarayonidagi eng katta yangilik sifatida, shubhasiz, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishini e'tirof etish mumkin. Ushbu qonun davlat xaridining yangi tizimida yagona huquqiy asos vazifasini o'taydi. Qabul qilingan qonun davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda, bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta'minlaydi hamda davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo'lgan korxonalar mablag'laridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

---

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruv tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5120-sonli Farmoni

Qonun xaridlarning besh tartib-taomilini belgilaydi, undan ikkitasi davlat xaridi bo'yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etadi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo'li bilan ta'minlanadi.

Qonun davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda, xalqaro tajribani, shu jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (YUNSI TRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Rossiya, Belarus, Qozog'iston va boshqa davlatlar qonunchiligini hisobga olgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro bank, ekspert va biznes-hamjamiyati, vazirlik va idoralar vakillari bilan muhokamalar o'tkazilgan.

Muhokamalar jarayonida hujjatning amaliy ahamiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilganlik, davlat xaridlari bozorida tadbirkorlik sub'ektlarining halol raqobatli kurashi uchun sharoitlar yaratish, ushbu sohada davlat hamda jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini ta'minlash maqsadida davlat xaridlarini elektron shaklga o'tkazish uning asosiy jihatlaridan hisoblanadi.

Qonun qabul qilinishidan avval mazkur soha 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Bunda davlat xaridlarining yaxlit tizimi mavjud bo'lmagan, oqibatda huquqiy kolliziyalar vujudga kelgan. Ko'p bosqichli kelishishlar hamda takrorlovchi tartib-taomillar korrupsiyaga sharoit yaratgan va ko'p vaqt yo'qotilishiga sabab bo'lgan.

Qonun bilan yuqorida bayon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ sifatida belgilandi. Ilgari davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi.

Qonunda nafaqat davlat xaridi sohasidagi munosabatlarning huquqiy jihatlari belgilab berilgan, balki unda davlat xaridining yangi tizimiga xos bo'lgan bir qator tashkiliy xususiyatlar ham o'z aksini topgan. Jumladan:



- davlat buyurtmachisining ikkita yangi kategoriyalari kiritilgan — «byudjet» va «korporativ» buyurtmachilar;

- davlat xaridlarining barcha turlari uchun maxsus axborot portali joriy etilmoqda. Elektron doʻkon va auksionda gʻolibni aniqlash avtomatik tarzda elektron tizim orqali amalga oshiriladi;

- maxsus talablar tatbiq etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) elektron doʻkon orqali xarid etiladi. Byudjet buyurtmachilari uchun -25 EKIX, yiliga 2500 EKIXdan ortiq boʻlmagan holda, korporativ buyurtmachilar uchun — 250 EKIXdan ortiq boʻlmagan limitlar oʻrnatildi. Avval elektron savdo orqali birjada faqat 10–13 tovar, ish, xizmatlar guruhi roʻyxatiga kirgan, 100 ming AQSH dollari qiymatigacha boʻlgan faqat birinchi darajada zarur boʻlgan tovarlar xarid qilingan;

- tanlov savdolari oʻrnatilgan mezonlarga javob beradigan tovar (ishlar, xizmatlar)ning barcha turlariga tatbiq etiladi. Ilgari tanlov savdolarini oʻtkazish mexanizmi faqat kapital qurilish sohasida amal qilar edi;

- tender tanlovlari uchun soʻm limitlar oʻrnatilgan: byudjet buyurtmachilari uchun — 6000 EKIH dan yuqori, korporativ buyurtmachilar uchun- 25000 EKIH dan yuqori. Ilgari tender savdolari 100 ming AQSH dollaridan yuqori boʻlgan summaga oʻtkazilgan;

- xarid qilish tartib-taomillari ustidan monitoring va nazorat tartibga solinmoqda.

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni koʻrib chiqish boʻyicha tuzilayotgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tatbiq etiladi. Ilgari davlat xaridlarini nazorat qilish masalasi tartibga solinmagan, nizo va kelishmovichliklar faqat elektron savdolar boʻyicha maxsus komissiya tomonidan koʻrib chiqilgan.

Qonunni realizatsiya qilish sogʻlom raqobat muhitini yanada rivojlantirishga, tadbirkorlik subʼektlari uchun davlat xaridlariga teng erkinlik yaratish, davlat sektorini optimal muddatlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan samarali va oqilona taʼminlashga xizmat qiladi, hamda mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirish jarayonini davom ettiradi.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

O'zbekistonda davlat xaridini samarali tashkil etishda Janubiy Koreya va Xitoy tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Zero davlatimiz hamda ushbu mamlakatlarning rivojlanish yo'llari, aholisining mentalitetida o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar davlat xaridi tizimining ijobiy jihatlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu davlatlar bilan bugungi kunda mustahkam aloqalar yo'lga qo'yilmoqda.

Janubiy Koreyada davlat xaridi sohasidagi munosabatlar "Davlat shartnomalari to'g'risida"gi qonun, "Mahalliy hokimiyat organlari to'g'risida"gi qonun, "Davlat xaridi to'g'risida"gi qonun va boshqa bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu mamlaktda Davlat xaridlari xizmati (Public Procurement Service – PPS) davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi. PPS davlat xaridi sohasi bo'yicha markaziy hukumat agentligi bo'lib, mazkur idora mudofaa ehtiyojlari uchun xaridlardan tashqari davlat xaridi jarayonining barcha bosqichlarini muvofiqlashtirib turadi. 2002-yilda PPS barcha davlat xaridlari uchun yagona darcha vazifasini bajaruvchi Koreya onlayn elektron xarid tizimi – KONEPSni joriy qildi. KONEPS ta'minotchilarni ro'yxatdan o'tkazish, tenderlarni tashkil etish, shartnoma tuzish va uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, yetkazib beruvchilar uchun to'lovlarni o'tkazib berish jarayoniga xizmat ko'rsatadi.

Xitoy ham o'ziga xos bo'lgan davlat xaridi tizimiga ega. Bu mamlakatda davlat xaridi qonunchiligini asosan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun hamda "Tender to'g'risida"gi qonunlar shakllantiradi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun faqat markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq qilinadi. "Tender to'g'risida"gi qonun esa davlat korxonalarini, shuningdek, xususiy sektor investitsiyalari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalar doirasidagi munosabatlarni ham tartibga soladi. Bundan tashqari, mahalliy darajadagi hokimiyat organlari ham o'z vakolatlari doirasida davlat xaridini amalga oshirishga doir qoidalarni ishlab chiqishgan.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida amalga oshirilgan tahlillarning natijalariga asoslangan holda, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik:

1. Davlat xaridi davlatning o'z zimmasiga olgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonidagi eng muhim zvenolardan biri bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning moddiylashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni davlat xaridi davlat tomonidan amalga oshirilgan vazifa va funksiyalarining moddiy natijasini ko'rsatuvchi instrument sifatida jamiyat ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bugungi kunda davlat xaridiga nafaqat davlatning ijtimoiy vazifalarini sifatli bajarilishini ta'minlovchi vosita sifatida, balki iqtisodiyotni rivojlantirishga stimuly beruvchi o'ziga xos mexanizm sifatida qaraladi. Chunki iqtisodiy qonunlar asosida samarali tashkil etilgan davlat xaridi tizimi mamlakat tadbirkorlari uchun juda yirik va keng assortimentli talabga ega bo'lgan bozorni vujudga keltiradi.

2. O'zbekistonda ham davlat xaridi tizimini takomillashtirishga hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda ushbu tizimning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlat xaridining mustahkam huquqiy bazasini yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohadagi qonunchilik davr talabidan kelib chiqqan holda davlat xaridi jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy qilish asnosida doimiy ravishda takomillashib bordi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan davlat xaridi tizimining yagona huquqiy asosi shakllandi. Ushbu qonunning qabul qilinishi davlat xaridi sohasini ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solish sharoitida yuzaga keladigan ziddiyatlarning oldini olish imkonini beradi.

3. Mamlakatimizda davlat xaridining elektron tizimini ishlab chiqish hamda kichik biznes sohasini rivojlantirishda davlat xaridi mexanizmidan foydalanishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi 1475-sonli Qarori dasturil amal vazifasini bajardi. Ushbu qarorda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash asnosida muhim natijalarga

erishildi. Chunonchi, so‘nggi yillarda O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasida davlat xaridlari bo‘yicha o‘tkazilgan elektron savdolar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ushbu elektron savdolar jarayonida byudjet mablag‘larining ma’lum miqdorda iqtisod qilinishiga erishildi. Shuningdek, mazkur elektron savdolar kichik biznes subyektlarining asosiy bozorlaridan biriga aylanib, unda asosiy ulushga ega bo‘ldi. Bu borada yuqoridagi qaror bilan belgilab berilgan davlat xaridlarini amalga oshirishning kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalar o‘rnatilishini o‘z ichiga olgan yangi mexanizmi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan davlat xaridi tizimining yangi bosqichi boshlandi. Ushbu qonunda davlat xaridining shaffofligini ta‘minlashga alohida urg‘u berilgan. Xususan, unda xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishda inson omilini yuqori darajada kamaytirish tamoyiliga amal qilingan. Mazkur qonun bilan davlat xaridining huquqiy va tashkiliy qismiga oid bo‘lgan yangi tushunchalar kiritildi, xarid qilish tartib-taomillari jarayoniga yangi talablar qo‘yildi, davlat xaridi sohasidagi monitoring va nazoratning yangi tartiblari joriy etildi va boshqa bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qonunning hayotga izchil tatbiq qilinishi sog‘lom raqobat muhitini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik sub‘ektlari uchun davlat xaridlariga teng erkinlik yaratish, davlat sektorini maqbul muddatlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan samarali va oqilona ta‘minlashga xizmat qiladi.

5. O‘zbekistonda davlat xaridini samarali tashkil etishda Janubiy Koreya va Xitoy tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Zero davlatimiz hamda ushbu mamlakatlarning rivojlanish yo‘llari, aholisining mentalitetida o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, bu o‘xshashliklar davlat xaridi tizimining ijobiy jihatlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu davlatlar bilan bugungi kunda mustahkam aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

6. Janubiy Koreyada davlat xaridi sohasidagi munosabatlar “Davlat shartnomalari to‘g‘risida”gi qonun, “Mahalliy hokimiyat organlari to‘g‘risida”gi qonun, “Davlat xaridi to‘g‘risida”gi qonun va boshqa bir qator qonun hujjatlari

bilan tartibga solinadi. Ushbu mamlaktda Davlat xaridlari xizmati (Public Procurement Service – PPS) davlat xaridi sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi. PPS davlat xaridi sohasi bo'yicha markaziy hukumat agentligi bo'lib, mazkur idora mudofaa ehtiyojlari uchun xaridlardan tashqari davlat xaridi jarayonining barcha bosqichlarini muvofiqlashtirib turadi. 2002-yilda PPS barcha davlat xaridlari uchun yagona darcha vazifasini bajaruvchi Koreya onlayn elektron xarid tizimi – KONEPSni joriy qildi. KONEPS ta'minotchilarni ro'yxatdan o'tkazish, tenderlarni tashkil etish, shartnoma tuzish va uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek, yetkazib beruvchilar uchun to'lovlarni o'tkazib berish jarayoniga xizmat ko'rsatadi.

7. Xitoy ham o'ziga xos bo'lgan davlat xaridi tizimiga ega. Bu mamlakatda davlat xaridi qonunchiligini asosan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun hamda "Tender to'g'risida"gi qonunlar shakllantiradi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun faqat markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan tatbiq qilinadi. "Tender to'g'risida"gi qonun esa davlat korxonalari, shuningdek, xususiy sektor investitsiyalari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalar doirasidagi munosabatlarni ham tartibga soladi. Bundan tashqari, mahalliy darajadagi hokimiyat organlari ham o'z vakolatlari doirasida davlat xaridini amalga oshirishga doir qoidalarni ishlab chiqishgan. Xitoy Xalqaro Savdo Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Davlat xaridi bo'yicha kelishuv" – GPA ga qo'shilmagan. Ammo bu borada muzokaralar olib borilmoqda.

8. Hozirgi vaqtda Respublikamizda davlat xaridini samarali tashkil etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5120-sonli Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etildi. Shuningdek, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qabul qilingan qonun davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda, bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta'minlaydi hamda davlat byudjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo'lgan korxonalar mablag'laridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr. – T.: “Adolat”, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29-avgust. – T.: “Adolat”, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-472-son Qonuni. 2018-yil 9-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni. 1998-yil 29-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'RQ-385-son Qonuni. 2015-yil 22-may.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasida Loyiha boshqaruv tizimini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida”gi 5120-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida”gi 5228-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 3237-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3150-sonli Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi 1475-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 6-maydagi "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi 3240-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrda qabul qilingan "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-son Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi "Davlat va korportiv xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 166-son Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi "O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portal orqali electron savdo yo'li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 69-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 31-maydagi "Tovar xomashyo birjalari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 251-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-apreldagi "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 185-sonli Qarori .

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:**

21. Mirziyoyev Sh.M.: "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz". -T: "O'zbekiston", 2017.

22. Mirziyoyev Sh.M.: "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" -T: "O'zbekiston", 2017.

23. Mirziyoyev Sh.M.: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". –T.: "O'zbekiston", 2017.

24. Mirziyoyev Sh.M.: "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". –T.: "O'zbekiston", 2017.

25. Mirziyoyev Sh.M.: "Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom etirib, yangi bosqichga ko'taramiz". –T.: "O'zbekiston", 2017.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: "Xalq so'zi", 23.12.2017.

27. Karimov I.A.: "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida". -T.: "O'zbekiston", 2005.

## **3. Darslik va o'quv adabiyotlari:**

28. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2012 .

29. Po'latov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2014.

30. Sirojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. - T.: "InfoCOM.uz". 2010.

31. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2013.



32. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbayev B., Nurmatov B. Davlat byudjeti ijrosining gʻaznachilik tizimi. Oʻquv qoʻllanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

33. Sánchez A.G. Public Procurement and the EU Competition Rules. Oxford and Portland, Oregon, 2015.

34. Malikov T.S. Moliya. Darslik. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2018.

35. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2012.

36. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2013.

37. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. Byudjet nazorati va auditi. Oʻquv qoʻllanma. T.: “InfoCOM.uz”. 2009.

38. Vahobov A. Byudjet - soliq siyosati yaxlitligi. Oʻquv qoʻllanma. - T.: “Iqtisod va moliya”. 2005.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar):**

39. Chinqulov Q.R., Oʻroqov U.Y. Oʻzbekistonda davlat xaridlari tizimining huquqiy asoslarini shakllanish va takomillashuv bosqichlari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy electron jurnali. №4, 2017.

40. Liu J., Shi B., Xue J., Wang Q. Improving the green public procurement performance of Chinese local governments: From the perspective of officials’ knowledge // Journal of Purchasing and Supply Management. Volume 25, 2018.

41. Rahimova G.X. Oʻzbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish asoslari // “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnali. №4, 2014.

42. Oʻzbekistonda qurilish. Statistik toʻplam. T.: Davlat statistika qoʻmitasi. 2017.

43. 2016 Annual Report. Public Procurement Service, Innovating Excellent in Procurement.

#### **5. Internet saytlari:**

44. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - Oʻzbekiston Respublikasi Hukumat portali.

45. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
46. [www.undp.uz](http://www.undp.uz) - Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi rasmiy sayti.
47. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
48. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz) - O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi sayti.
49. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistikasi qo‘mitasi rasmiy sayti.
50. [www.regulation.gov.uz](http://www.regulation.gov.uz) - O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasi sayti.
51. [www.pps.go.kr](http://www.pps.go.kr) - Janubiy Koreya Davlat xaridlari xizmati rasmiy sayti.
52. [www.mof.com](http://www.mof.com) – Xitoy Xalq Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
53. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1478409218301407>.